

**ERICH KÄSTNERNING „TILL EULENSPIEGEL“ ASARIDAGI „TILL EULENSPIEGEL
KASALLARNI QANDAY DAVOLAGANI HAQIDA“ HIKOYASI TARJIMASIDAGI
LINGVOKULTUROLOGIK ASPEKTLAR**

Ismoilova Shahnoza Anvarovna

*Urganch davlat universiteti, xorijiy filologiya fakulteti, Tarjima nazariyasi va amaliyoti
yoʻnalishi 4-bosqich talabasi*

Annotatsiya: *Maqolada tilshunoslikdagi lingvomadaniyat hamda uning nazariyasi keltirib oʻtiladi. Erich Kästnerning „Till Eulenspiegel“ asaridagi „Till Eulenspiegel kasallarni qanday davolagani haqida“ hikoyasi tarjimasidagi lingvokulturologik aspektlar koʻrib chiqiladi. Uning tarjima qilinish jarayoni haqida soʻz boradi.*

Kalit soʻzlar: *Lingvokulturologiya, Tilshunoslik, Madaniyatshunoslik, Gulden*

Biz bilamizki, til kulturologiyasi Tilshunoslik va Madaniyatshunoslik oʻrtasidagi yangi fandır. Bu soha XXI asr boshiga kelib lingvokulturologiya dunyo tilshunosligidagi yetakchi yoʻnalishlardan biriga aylanib ulgurdi, chunki har bir tilshunos va tarjimon lingvistik-madaniy tadqiqotlarga ehtiyoj sezadi. Tilshunoslik va Madaniyatshunoslik predmeti madaniyat va umuman tilning oʻzaro taʼsirini oʻrganishdir.

Germaniyaning har bir mintaqasi oʻziga xos soʻzlar, iboralar, va urf-odatlariga ega boʻlgan oʻz lahjasiga egadir. Bu mamlakatning madaniy xilma-xilligini aks ettiradi va turli mintaqalardagi odamlar oʻrtasida aloqa oʻrnatadi. Nemis tili ham boy adabiy anʼanalarga ega. Germaniyaning koʻplab taniqli yozuvchilari Johann Wolfgang von Goethe, Friedrich Schiller va Thomas Mann nemis tilida yozgan va adabiy asarlar yaratgan. Ushbu adabiy anʼana nemis madaniyati va tarixini shakllantirdi va nemis tilini xalqaro miqyosda tan oldi. Nemis tilining yana bir qiziq tomoni shundaki, u fan va texnika uchun jahon tili sifatida tan olingan. Nemis tilida koʻplab muhim ilmiy kashfiyotlar va texnologik yangiliklar nashr etilgan.

Umuman olganda, nemis tilining koʻplab qiziqarli lingo-madaniy jihatlari bor deb aytish mumkin. Uzoq qoʻshma ismlardan mintaqaviy lahjalar va adabiy anʼanalarga qadar nemis tili boy madaniy ahamiyatga ega va jamiyatga koʻp jihatdan taʼsir qiladi. Sheʼriyatning lingvistik va madaniy jihatlari nihoyatda xilma-xil boʻlib, til va uslub darajasidan tortib, madaniy maʼnolarni yetkazadigan metafora va ramzlardan foydalanishgacha. Sheʼrlardagi til darajasi hissiyotlarni uzatishda va kayfiyatni ifodalashda hal qiluvchi roʻl oʻynaydi. Shoirlar oʻz xabarlarini yanada murakkab va ifodali qilish uchun majoziy tildan foydalanish kabi turli xil til texnikasidan foydalanishlari mumkin. Soʻz va jumla tuzilishini tanlashda nozik nuanslar hissiy va hissiyotni beradigan maxsus madaniy maʼnoni anglatishi mumkin.

Lingvistik kulturologiya bir qator oʻziga xos xususiyatlar bilan tavsiflanadi. 1. Lingvokulturologiya-bu tilshunoslik va mintaqashunoslik kabi tillarni oʻqitishning bir jihati

emas, balki madaniyat va filologiya (tilshunoslik) ni o'rganadigan fanlarning turini, chegarasini sintez qiladigan ilmiy fan. 2. Lingvokulturologiyaning asosiy maqsadi madaniyat va tilning o'zaro bog'liqligi va o'zaro ta'siri, ularning faoliyati jarayonida va ushbu o'zaro ta'sirni yagona tizim yaxlitligi sifatida talqin qilishni o'rganishdir. 3. Lingvokulturologik tadqiqot mavzusi insoniyat tomonidan yaratilgan moddiy va ma'naviy madaniyat, tilda ifodalangan artefakt tizimlari – „dunyoning lingvistik rasmini tashkil etuvchi hamma narsadir“.

Germaniyaning mashhur yozuvchilaridan biri Erich Kästnerning asarlarini tarjima qilish jarayonida ko'pgina lingvokulturologik aspektlarga duch kelamiz. Shubhasiz, uning Till Eulenspiegel nomli hikoyalar to'plami ham shunday asarlardan biridir, quyida to'plamdan bir hikoya tarjimasidagi lingvokulturologik so'zlarni va iboralarni ko'zdan kechiramiz.

Wie Eulenspiegel die Kranken heilte

Es stimmt schon. Wer als Kind ein rechtes Radieschen war, wird als Erwachsener immer schlimmer. Noch dazu, wenn der Vater zu früh wegstirbt. So war es auch mit Till Eulenspiegel. Er trieb es von Jahr zu Jahr toller. Er wechselte die Berufe öfter als das Hemd. Und da er nirgends lange bleiben konnte, weil man ihn sonst verkehrt aufgehängt oder wenigstens halb totgeschlagen hätte, kannte er, kaum dass er zwanzig Jahre alt war, Deutschland wie seine Westentasche. So kam er auch nach Nürnberg. Und hier trieb er's ganz besonders bunt. Er klebte an die Kirchentüren und ans Rathausportal Plakate, auf denen er sich als Wunderdoktor ausgab.

Es dauerte auch gar nicht lange, da kam der Verwalter vom Krankenhaus zum Heiligen Geist anspaziert und sagte: »Sehr geehrter Herr Doktor! In unserem Spital liegen so viele Kranke, dass ich mir nicht mehr zu helfen weiß. Alle Betten sind belegt und das Geld reicht vorn und hinten nicht. Können Sie mir keinen Rat geben?«

Eulenspiegel kratzte sich hinterm Ohr und antwortete: »Doch, doch, lieber Mann. Aber guter Rat ist teuer.« »Wie viel?«, fragte der Verwalter. Und Eulenspiegel sagte: »Zweihundert Gulden.« Zunächst blieb dem guten Mann die Luft weg. Und dann erkundigte er sich, was der Herr Doktor Eulenspiegel dafür leisten wolle.

»Dafür mache ich in einem einzigen Tag alle Kranken gesund, die im Hospital liegen! Wenn mir's nicht gelingen sollte, will ich keinen Pfennig haben.« »Ausgezeichnet!«, rief der Mann, nahm Eulenspiegel auf der Stelle mit ins Krankenhaus und sagte den Kranken, der neue Doktor wolle sie alle heilen. Sie müssten sich nur genau nach seinen Vorschriften richten. Dann ging er ins Verwaltungsbüro und ließ Till mit den Kranken allein. Eulenspiegel ging langsam von Bett zu Bett und unterhielt sich mit den Leuten. Er sprach sehr leise und geheimnisvoll mit jedem von ihnen. Und einem jeden sagte er das Gleiche.

»Ich will euch allen helfen«, sagte er, »dir, mein Freund, und den anderen auch. Und ich weiß ein fabelhaftes Rezept dafür. Ich muss einen von euch zu Pulver verbrennen. Dieses Pulver müsst ihr dann einnehmen. Ich habe mir auch schon überlegt, wen von euch ich zu Pulver verbrennen werde: den Kränksten im Saal. Das wird das Beste sein, meinst du nicht auch? Na also.«

Dann beugte er sich noch tiefer und fuhr noch leiser fort: »In einer halben Stunde hole ich den Verwalter herauf. Der wird die Gesunden unter euch fortschicken. Es wird also gut sein, wenn du dich ein bisschen beeilst, mein Lieber. Denn den Letzten verbrenne ich leider zu Pulver. Die Sache will's!« So ging er zu jedem und erzählte jedem das Gleiche. Dann holte er endlich den Verwalter nach oben. Und der Verwalter rief mit lauter Stimme: »Wer sich gesund fühlt, ist entlassen!«

In drei Minuten war der Saal leer! Alle rannten oder humpelten, so schnell sie nur irgend konnten, aus dem Krankenhaus hinaus. Solche Angst hatten sie! Es waren welche dabei, die seit zehn Jahren hier gelegen hatten. Der Hospitalverwalter war sprachlos. Er raste ins Büro und brachte Eulenspiegel zweihundertzwanzig (220) Gulden. Die streckte er ihm hin und sagte: »Zwanzig Gulden gebe ich Ihnen extra. Sie sind der beste Arzt der Welt.«

»Stimmt«, sagte Eulenspiegel. Damit meinte er den Geldbetrag. Er steckte ihn in die Tasche, empfahl sich und machte, dass er Nürnberg in den Rücken bekam. Schon am nächsten Tag kehrten alle Kranken ins Hospital zum Heiligen Geist zurück und legten sich wieder in ihre Betten.

Der Verwalter war außer sich. »Um alles in der Welt«, rief er, sich denke, er hat euch gesund gemacht?«

Da erzählten sie ihm, warum sie gestern davongelaufen waren und dass sich keiner habe zu Pulver verbrennen lassen wollen.

»Ich bin ein Esel«, sagte der Verwalter. »Der Lump hat mich betrogen, und ich habe ihm sogar noch zwanzig Gulden mehr gegeben, als er verlangt hat!«

Ushbu hikoya quyidagicha tarjima qilindi:

Till Eulenspiegel kasallarni qanday davolagani haqida

Bo'ladigan bola boshidan ma'lum-bu to'g'ri gap. Till Eulenspiegel otasidan ayrildi. U kasblarni kiyimdan ko'ra ko'proq almashtirardi. Chunki u bir kasbni oxirigacha mahkam tuta olmasdi, biron bir ishni boshlasa yoki uni o'zi ketardi yoki o'lgudek kaltaklab quvib yuborishardi. Shu tarzda u 20 yilda ham Olmoniyada o'rnini topa olmagandi. U Nyurnbergga ham keldi. Cherkov eshiklariga, hokimiyatga plakatlar ilib o'zini mo'jizakor doktor deb tanishtirdi.

„Hurmatli shifokor! Kasalxonamizda kasallar shunchalik ko'pki, endi nima qilishni bilmayabman. Hamma ko'rpa-to'shaklar band, pul ham yo'q. Menga maslahat bera olasizmi?“ Eulenspiegel qulog'ini qashidi va javob berdi: „Ha, ha, qadrdonim. Lekin yaxshi maslahat qimmat turadi.“

„Qancha?“ so'radi boshqaruvchi. Eulenspiegel dedi: „Ikki yuz gulden.“ Avvaliga bu odam juda hayratlandi. Keyin u janob doktor Eulenspiegeldan bu pul o'rniga nima qila olishi haqida so'radi. „Buning uchun men kasalxonada yotgan barcha kasallarni bir kunda davolayman! Agar men bu bilan muvaffaqiyatga erishmasam, bir tiyin ham olmayman“.

„Ajoyib!“ dedi odam va Eulenspiegelni joyidan kasalxonaga olib bordi va bemorlarga yangi shifokor hammasini davolamoqchi ekanini aytdi. Siz faqat uning qoidalariga aniq amal qilishingiz kerak. Keyin u boshqarmaga ketdi va Tillni kasallar bilan yolg'iz qoldirdi.

Eulenspiegel karavatdan karavatga sekin o'tib, odamlar bilan gaplashdi. Ularning har biri bilan juda yumshoq va sirli gaplashdi. U hammaga bir xil gapni aytdi. „Men barchangizga yordam bermoqchiman“, dedi u, „senga, do'stim va boshqalarga ham. Men buning uchun ajoyib retseptni bilaman, sizlardan biringizni kuydirishim kerak. Keyin bu kukunni olishingiz kerak. Men sizlardan qaysi biringizni kuydirishim haqida o'ylab qo'ydim: xonadagi eng kasalmand odamni. Bu eng yaxshisi bo'ladi, shunday emasmi? Xo'sh?!“

Keyin yana egilib, sekinroq davom etdi: „Yarim soatdan keyin boshliqni olib kelaman. U sizning orangizdagi sog'lomlarni jo'natadi. Shunday qilib, qadrdomim, agar sen shoshilayotgan bo'lsang, bu yaxshi bo'ladi. Afsuski, oxirgisini kuydiraman.“ Shunday qilib, u hammaga borib, hammaga bir xil narsani aytdi. Keyin u nihoyat boshliqni yuqoridan olib tushdi. Boshliq baland ovozda: „Kim o'zini sog'lom deb hisoblasa, u qo'yib yuboriladi!“

Uch daqiqadan keyin zal bo'shab qoldi! Hamma imkoni boricha tezroq kasalxonadan yugurib chiqib ketdi. Ular juda qo'rqishdi!

Bu yerda o'n yildan beri yotganlar ham bor edi. Kasalxona ma'muriyati indamay qoldi.

Boshliq ofisga chopdi va Eulenspiegelga ikki yuz yigirma gulden olib keldi. U pullarni unga uzatdi va dedi: „Men sizga qo'shimcha yigirma gulden beraman. Siz dunyodagi eng yaxshi shifokorsiz.“

„To'g'ri“, dedi Eulenspiegel. Bu bilan u pulni nazarda tutgan edi. Till pulni cho'ntagiga solib, xayrlashdi va ketdi. U Nyurnbergni qo'lga kiritdi. Ertasi kuni barcha kasallar yana shifoxonaga qaytib, o'z karavatlari yotishdi. Boshliqning qattiq jahli chiqdi va baqirdi. „U sizlarni tuzatib yubordi deb o'ylagandim“ Keyin ular kecha nega qochib ketishganini va hech kim kuyib, kukun bo'lib qolishni xohlashmaganini aytishdi.

„Men ahmoqman“, dedi boshqaruvchi. „Bu bema'ni odam meni aldadi va men unga u so'raganidan yigirmata guldan ko'proq berdim!“

Ismoilova Shahnoza tarjimasi

Hikoyani tarjima qilish jarayonida uchragan lingvomadaniy aspektlar:

Es stimmt schon. Wer als Kind ein rechtes Radieschen war, wird als Erwachsener immer schlimmer. Asar ushbu jumlar bilan boshlaydi va o'zbek tiliga „Bo'ladigan bola boshidan ma'lum-bu to'g'ri gap“ tarzida tarjima qilinadi. Yani nemis madaniyatining bu frazeologizmi o'zbeklarning Bo'ladigan bola boshidan ma'lum kabi maqol ma'nosiga to'g'ri keladi. Uning ma'nosidan kelib chiqqan holda tarjima qilindi, agar u so'zma-so'z tarjima qilinsa xato tarjima bo'lardi. Bu maqol bizning qadimdan aytilib kelayotgan madaniy aspektimizdir. Demak nemis maqollari orasida ham bizning madaniy boyligimizga o'xshash aspektlar uchrab turadi.

»Wie viel?«, fragte der Verwalter. Und Eulenspiegel sagte: »Zweihundert Gulden.« Bu jumlada esa nemis madaniyatiga tegishli Gulden yani tarjimada pul so'zi qo'llangan. Demak Germaniyada qadimda pul birligi Gulden bo'lgan, bizda esa so'm.

Yuqoridagilardan xulosa qilib aytishimiz mumkinki, lingvomadaniy aspektlarni tarjima jarayonida qiyinchiliklarga ko'p duch kelinmadi. Ularning tarixi va ma'nosi chuqur o'rganilib tarjima qilindi. Albatta, tilshunoslar va tarjimonlar tarjima qilayotgan asarlarida bunday aspektlar uchrasa va ular to'g'ri tarjima qilinsa, shubhasiz asarning sifati yaxshilanadi. Lingvokulturemalar o'zida lingvistik, madaniy, etnopsixologik va ekstralingvistik omillarni mujassamlashtiradi. Lingvokulturemalar tarkibi belgi-ma'no-tushuncha-predmetlardan tashkil topgan. Ular to'g'ri va ko'chma ma'nosidan farqli o'laroq, inson madaniyati va tili darakchisidir. Shunday ekan, milliy madaniyatimizni va chet mamlakatlarning kulturologiyasini o'rganish inson madaniyatini oshirishga xizmat qiladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Lingvokulturologiya, darslik, Shoira Usmanova, Toshkent 2019, 248 bet
2. Till Eulenspiegel, Erich Kästner, Atrium, 64 bet
3. Redewendungen, Duden 2020. 928 bet.
4. Shoira Usmanova. Madaniyatlararo muloqot, 2013